

SHOLI TUPLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Q.O'razmetov

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

A.Shermatov

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

Annotatsiya. O'simlikning serpoya bo'lishida tuplanishning ahamiyati katta, lekin o'simlikning me'yoriy qalinlikda bo'lishida tuplanish yordamchi omil hisoblanadi. Agar ekish me'yori kam bo'lganligi natijasida maysalar siyrak chiqsa, ular ular qanchalik sertup bo'lmasin baribir ko'zlangan hosilni qoplay olmaydi. O'zbekiston sharoitida gektariga 5-7,5 mln dona sholi ekilganda ya'ni, har m² yerda o'ringa qadar 250-350 tup atrofida o'simlik va 450-500 ta ruvakli poya bo'lgan taqdirda sholidan mo'l hosil olingan. O'rganilayotgan istiqbolli kechpishar Mustaqillik navida nazorat navi (UzROS 7/13) va ekish muddatiga (25 aprel) nisbatan 5 mayda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda haqiqiy tuplanish 2,9 foizni tashkil qilib, gektaridagi o'simliklarning qalinligini 4.47 mln. donaga oshirish imkoniyatini berilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: tuproq, sholi, o'g'it, maydon, oziq-ovqat, agrotexnika.

Annotation. Clumping is of great importance for the plant to be tall, but it is an auxiliary factor for the plant to have a normal thickness. If the lawns are sparse as a result of the low planting rate, they will not be able to cover the intended harvest, no matter how hard they are. In the conditions of Uzbekistan, when 5-7.5 million pieces of rice are planted per hectare, i.e., if there are about 250-350 plants and 450-500 stalks on each m² of land before harvest, an abundant harvest of rice is obtained. . Compared to the control variety (UzROS 7/13) and the planting date (April 25) in the studied promising evening primrose variety Independence, 4 million per hectare is 5 May. When planted at the rate of grain, the actual accumulation is 2.9 percent, and the thickness of plants per hectare is 4.47 million. it was determined that the unit will be given the opportunity to increase.

Key words: soil, rice, fertilizer, field, food, agrotechnics.

Аннотация. Комкование имеет большое значение для того, чтобы растение было высоким, но является вспомогательным фактором, чтобы растение имело нормальную толщину. Если газоны изрежены в результате низкой нормы посадки, они не смогут покрыть намеченный урожай, как бы сильно они ни были. В условиях Узбекистана при посеве 5-7,5 млн штук риса на гектар, т. е. при наличии до уборки на каждом м² земли около 250-350 растений и 450-500 стеблей, получают богатый урожай риса. . По сравнению с контрольным сортом (УзРОС 7/13) и сроком посева (25 апреля) у изучаемого перспективного сорта примулы вечерней Независимость 4 млн/га на 5 мая. При посеве по норме зерна фактическое накопление составляет

2,9%, а толщина растений на гектар — 4,47 млн. шт. было определено, что агрегату будет предоставлена возможность увеличения.

Ключевые слова: почва, рис, удобрения, поле, еда, агротехника.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida sholi ishlab chiqarishi bo'yicha yirik davlat hisoblanib, 2016 yilda sholi ekinni ekilgan maydon 94.3 ming ga, yalpi hosili esa 346.3 ming tonnani tashkil qilgan. Aholi jon boshiga sholi mahsulotlarini ishlab chiqarish 10,8 kg ga yetdi, bu esa O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tavsiya etadigan yillik iste'mol qilinadigan eng kam me'yordan (9,8 kg) 1 kg ga oshiqdir.

Mamlakatimizda aholini oziq-ovqat, mahsulotlari xususan sholi mahsulotlari bilan ta'minlashga katta ahamiyat beriladi. Bizning mamlakatimiz aholi jon boshiga sholi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yuqori rivojlangan davlatlardan qolishmaydi. Ammo, mamlakatimizning aholisi soni tobora ortib borayotgan, global iqlim o'zgarishlari tufayli harorat ko'tarilib, ayrim hududlarda yog'ingarchilik ko'payib, ba'zi joylarda esa kuchli qurg'oqchiliklar kuzatilayotgan hozirgi sharoitda sholi ekinlaridan mo'l va sifatli hosil yetishtirish tobora qiyinlashib bormoqda. Bu kelgusida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasi yanada murakkab bo'lishidan dalolat beradi. Bu masalani yechishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng ustuvor yo'nalishlardan biri dehqonchilik mahsulotlari Respublikada sholini ham tuproq-iqlim sharoiti va navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda sholi navlarini sifatli yetishtirish agrotexnikasini, sholi hosildorligini oshirishga, yangi navlar yaratish bilan bir qatorda dunyodagi ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, har bir gektar maydondan samarali foydalanish usullarini mukammal ishlab chiqish zarur.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya va dala tajribalarini qo'yish, biometrik o'lchash, fenologik kuzatishlar «Metodika Gosudarstvennogo sortoispytaniya selskoxozyaystvennykh kultur», «Metody agroximicheskix analizov pochv i rasteniy», «Metody agrofizicheskix issledovaniy», «Dala tajribalarni o'tkazish uslublari» kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Dala tajribalarda olingan natijalarining dispersion va statistik tahlillari Microsoft Excel dasturlari yordamida B.A.Dospexov bo'yicha hisoblangan.

Shuning uchun ham agrar sohani isloh qilish, uni zamonaviy, zararsiz texnologiyalar bilan ta'minlash barcha mamlakatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonda sholichilikni keskin rivojlantirish va bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, ilg'or texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish zarur.

Tadqiqot natijasi.

Sholining ildizlari o'sish uzunligi, ildizlar soni, yosh o'simliklarning balandligini kuzatishgan. Urug'larni undirib ekilganda o'simliklar 20 maydan 27 iyulgacha tez o'sgan, tuplanish va ro'vak chiqarish erta boshlangan, tuplanish

bo'g'ini esa ancha pastda joylashgan. Ammo ekish me'yori va o'simlik qalinligi yuqori bo'lganligi sababli uzoqqa cho'zilmagan. Ro'vak qalinligi 5387 ming/ga, ro'vaklardagi don soni – 76,8 dona, 1000 dona urug' massasi – 24,6 g ni tashkil etgan. [4, -184-188 b.; 5, -267-270 b.; 6, -113-123 b.].

Urug' sifatini belgilovchi eng asosiy ko'rsatkich urug' unuvchanligi va urug' unib chiqish energiyasi hisoblanadi. Ko'p yillik o'tkazilgan tajribalarda, dala sharoitida urug' unuvchanligi 42-99 foizni tashkil etgan. Shunga asoslanib, urug' unuvchanligiga faqatgina urug' sifati emas, balki tuproq-iqlim sharoiti, havo haroratini ta'sir etishini bildiradi. Urug'lik maydonlarida tuplanish darajasi ortishi urug' shakllanishi va pishish jarayonini har xil muddatda o'tishiga olib keladi. Natijada yetishtirilgan urug'lik har xil bo'lib, uni ekish sifati pasayadi.

Urug'ning fiziologik yetilishi o'simliklardagi muhim biologik hususiyat hisoblanadi. Birinchidan noqulay sharoitlarda urug'larni saqlab qolishiga, ikkinchidan esa optimal sharoitda unib chiqib yuqori va sifatli hosilni ta'minlashiga imkon beradi. [1, -282 b.].

Sholining har bir navning rivojlanishi, tuplanish qobiliyati tuproq sharoitini hisobga olinib muqobil ko'chat ekish ya'ni har 1 m² maydonda 250-300 ta hosildor poyalar bo'lishini ta'kidlagan. Ekish muddatini va ekish me'yorini to'g'ri belgilash shuning uchun ham muhimki, bunda o'simlikning morfobiologik rivojlanishi mo'tadil bo'lib o'simlik o'zining barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi va hosildorligi eng yuqori bo'ladi. Uzoq yillik laboratoriya va amaliy kuzatishlardan shu narsa aniqlanganki, ekish muddatlaridagi o'zgarishlar o'simlikning vegetatsiya davriga va hosildorligiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. [2, -68 b.].

Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoiti (markaziy va shimoliy) kechpishar sholi navlarini turli muddat va me'yorlarda ekish ularni tuplanishiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Toshkent viloyati sharoitida har bir muddat bo'yicha 1 m² maydondagi o'simliklar soni unib chiqishi UzROS 7/13 (st) navida 25 aprelda (st) gektariga 4 mln. dona ekilganda – 219 dona, 5 mln. donada – 274 dona va 6 mln. donada (st) – 325 donani tashkil qilgan bo'lsa, nazorat variantga nisbatan, 5 mayda gektariga 4 mln. dona ekilganda – 1 donaga, 5 mln. donada – 2 donaga va 6 mln. donada – 3 donaga ko'paygani aniqlandi. Biroq, nazoraga nisbatan 15 mayda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda – 2 donaga, 5 va 6 mln. donada – 3 donaga kamayganligi ma'lum bo'ldi.

Urug'ni qalinroq sepish hosilni ma'lum darajada oshiradi. 1973 yilda o'tkazilgan tajribalarda ko'chatlar nisbatan qalin bo'lgan ya'ni gektariga 6 mln dona urug' ekilgan maydonlarida eng yuqori (63,7 s/ga) hosil olingan. O'zbekiston sharoitida gektariga 5-7,5 mln dona sholi ekilganda ya'ni, har m² yerda o'ringa qadar 250-350 tup atrofida o'simlik va 450-500 ta ruvakli poya bo'lgan taqdirda sholidan mo'l hosil olingan. Sholidan har gektar maydondan optimal miqdorda o'simlik bo'lishi nihoyatda muhimdir. Ekish me'yori va o'ringa qadar saqlanib qolgan o'simliklarning soni xususan shu ko'rsatkich bilan belgilanadi. O'simlikning serpoya bo'lishida tuplanishning ahamiyati katta, lekin o'simlikning me'yoriy qalinlikda bo'lishida tuplanish yordamchi omil hisoblanadi. Agar ekish

me'yori kam bo'lganligi natijasida maysalar siyrak chiqsa, ular ular qanchalik sertup bo'lmasin baribir ko'zlangan hosilni qoplay olmaydi. Binobarin ekish me'yori bilan belgilanadigan ko'chat qalinligiga erishilgan taqdirdagina sholidan mo'l hosil yetishtirish mumkin [3, -165-166 b.]

Ekish me'yori oshirib borilishi bilan o'simlikning tuplanishi, mahsuldorligi, 1000 urug' massasi kamayadi, ammo hosildorlik ortishi mumkin. Bunday holda hosil asosan bosh poya hisobidan shakllanadi, donlar bir tekis bo'ladi. Siyrak ekinlarda tuplanish kuchayadi, ikkinchi va navbatdagi poyalar hosil bo'ladi. Ularda don soni, 1000 urug' massasi kam bo'ladi, ammo bitta o'simlikning mahsuldorligi ortadi. Eng sifatli urug' maksimal hosil shakllanishigacha hosil bo'ladi.

Tuplanish fazasi 3-4 bargdan to 8-9 barg chiqquncha 25-30 va undan ortiq kun davom etadi. Sholi kuchli darajada tuplanish xususiyatiga ega bo'lib, bu undan yuqori hosil olishini ifodalaydi. Tuplanishga o'simliklarning tup qalinligi ta'sir etadi. Tuplanish fazasining birinchi yarimida, qo'shimcha ildizlar tez o'sadi.

O'rganilayotgan istiqbolli kechpishar sholining Mustaqillik navi 1 m² maydondagi o'simliklar soni unib chiqishi UzROS 7/13 (st) naviga nisbatan 25 aprelda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda – 3 donaga, 5 mln. donada – 7 donaga va 6 mln. donada – 6 donaga, 5 mayda gektariga 4 mln. dona ekilganda – 4 donaga, 5 mln. donada – 5 donaga va 6 mln. donalarda – 3 donaga, 15 mayda gektariga 4 mln. dona ekilganda – 7 donaga, 5 va 6 mln. donalarda – 10 donaga ko'paydi (1-jadval).

1-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, sinalayotgan kechpishar sholining UzROS 7/13 (st) va Mustaqillik navlarining o'rimdan oldingi 1 m² maydondagi o'simliklar soni aniqlash shuni ko'rsatdiki, unib chiqishdagi o'simliklar soniga nisbatan UzROS 7/13 (st) navida nazorat ekish muddatida (25 aprel) gektariga 4, 5 va 6 (st) mln. dona me'yorida ekilganda 5, 72 va 49 donagacha, 5 mayda – 69, 72 va 36 donagacha hamda 15 mayda – 65 donadan 27 donagacha tuplanish kamayganligi ma'lum bo'ldi.

O'rganilayotgan kechpishar sholining Mustaqillik navi nazorat naviga (UzROS 7/13) nisbatan o'rimdan oldingi 1 m² maydondagi o'simliklar soni unib chiqishdagi o'simliklar soniga nisbatan 25 aprelda gektariga 4, 5 va 6 mln. dona me'yorida ekilganda 5, 72 va 49 donagacha, 5 mayda – 69, 72 va 36 donagacha hamda 15 mayda – 65 donadan 27 donagacha tuplanish kamayganligi ma'lum bo'ldi.

1-jadval

Toshkent viloyati sharoitida kechpishar sholi navlarining ekish muddatlari va me'yorlarini o'simliklarning tuplanishiga ta'siri (2022-2023 yy.)

Sholi navlari	Ekish muddati	Ekish me'yori, mln. dona/ga	1 m ² da o'simliklar soni			Haqiqiy tuplanish, %
			unib chiqishda	o'rimdan oldin	jami	
UzROS 7/13 (st)	25 aprel (st)	4	219	147	393	2,7
		5	274	202	404	2,0
		6 (st)	325	276	333	1,2

	5 may	4	220	151	422	2,8
		5	276	204	421	2,1
		6	328	292	363	1,2
	15 may	4	217	152	364	2,4
		5	271	206	371	1,8
		6	322	295	327	1,1
Mustaqillik	25 aprel	4	222	152	442	2,9
		5	281	208	437	2,1
		6	331	283	337	1,2
	5 may	4	224	157	447	2,9
		5	281	213	414	1,9
		6	331	292	347	1,2
	15 may	4	224	152	329	2,2
		5	281	204	342	1,7
		6	332	299	322	1,1

Kechpishar sholi navlarining ekish muddati va me'yorini o'simlik-larning haqiqiy tuplanishi barcha variantlarda 1,1 foizdan 2,9 foiz oraliqida bo'lib, eng yuqori haqiqiy tuplanishni UzROS 7/13 (st) navini nazorat ekish muddatiga nisbatan 5 mayda gektariga 4 mln. dona ekilgan 2,9 foizni tashkil qilib, bu o'z navbatida gektarida o'simliklar qalinligi 4.12 mln. donani bo'lishini ta'minlar ekan.

O'rganilayotgan sholining kechpishar Mustaqillik navida nazorat navi (UzROS 7/13) va ekish muddatiga (25 aprel) nisbatan 5 mayda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda haqiqiy tuplanish 2,9 foizni tashkil qilib, gektaridagi o'simliklarning qalinligini 4.47 mln. donaga oshirish imkoniyatini berilishi aniqlandi.

Xulosa Toshkent viloyati sharoitida kechpishar sholi navlarini erta muddatlarda va 5 mln dona unuvchan urug' hisobiga ekilganda yuqori va sifatli hosil olishning maqbul ekish muddatlariga amal qilish (aprelning 3-chi dekasi va mayning 1-chi dekasi) maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «2002 yilda sholi ekiladigan maydonlar va sholi yetishtirish xajmlari tugrisida» 2002 yil 22 apreldagi 134-sonli karori va shu karor asosida Qishloq va Suv xo'jaligi Vazirligining 2002 yil 1 maydagi 75-sonli buyrug'i.
2. Yerıgin P.S. Fiziologiya risa. M.: Kolos-1981. S 282.
3. Kovalev B.C., Malısheva N.N., Alekseenko Ye.V. i dr. Perspektivnaya resurs osberegayushaya texnologiya proizvodstva risa. M.:FGNUR osin forma grotex.- 2009. - s 68.
4. Chirkov V.N va boshqalar. Sholichilik, T.:O'qituvchi,- 1977. 165-166 b
5. Allin S., Terman C. Yield and protein content of rice as affected by rate,source, method and time of applied // Food Ferm. Agr. 2004. Vol. 10. № 6. P. 184-188.

-
6. Kumar V.J.F., Balasubramanian M., Jesudas D.Manohar “Application of different forms of urea for rice” J. Indian Soc. Soil Sci. N 2, 1996, t.44, P.267-270
 7. Saigusa Masahiko, Hossain Zahid, Sato Tokuo, Shibuya Kyoichi “Establishment of cultivation methods of Hitomebore rice in cold regions ” Tohoku J. Agr. Res. N 3-4, 1996, t.46, P.113-123